

**Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va
biotexnologiyalar universiteti O'zbek, rus tillari va adabiyoti
kafedrasi o'qituvchisi Bozorova Gulruh Ravub qizining
"Adabiy nutq uslublari. Ilmiy uslub va uning xususiyatlari"
mavzusidagi ochiq dars ishlanmasiga**


TAQRIZ

Amaliy dars mavzusi "O'zbek tilining sohada qo'llanishi" fanining fan dasturi va ishchi o'quv dasturiga to'liq mos keladi. Ochiq dars uchun tanlangan amaliy mashg'ulot mavzusi yangi pedagogik texnologiyalar bo'yicha taqdimot qilingan hamda uslubiy tomondan to'g'ri tashkil qilingan. Darsda mashg'ulotning maqsadi va vazifalari, o'qitish pedagogik texnologiyasi, tayanch so'z va iboralar batafsil berilgan bo'lib, unda pedagogik faoliyat va o'quv faoliyat natijalari ko'rsatilgan.


Taqdimotda belgilangan mavzu haqida to'liq ma'lumotlar qamrab olingan, adabiy nutq uslublari va ularning o'ziga xos xususiyatlari, ilmiy uslub bo'yicha ma'lumotlar bilan boyitilgan. Amaliy mashg'ulotda yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalardan samarali va o'rinli foydalanilgan, shuningdek fanga yangicha yondashilgan, unda o'zbek tilidan o'qish, tinglab tushunish, yozish, so'zlash ko'nikmalari bo'yicha ham topshiriqlar berilgani bilan ahamiyatlidir.

O'zbek tili o'qituvchisi Bozorova Gulruh tomonidan tayyorlangan "Adabiy nutq uslublari. Ilmiy uslub va uning xususiyatlari" mavzusidagi ochiq dars ishlanmasi hozirgi zamon ta'lim texnologiyalari talablariga to'liq javob beradi deb hisoblayman va uni o'quv mashg'ulotida foydalanish uchun tavsiya etaman.

**Samarqand davlat chet tillar
instituti O'zbek tili va
adabiyoti kafedrasi dotsenti**



M.A.Xalova



Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va
biotexnologiyalar universiteti O'zbek, rus tillari va adabiyoti
kafedrasi o'qituvchisi Bozorova Gulruh Ravub qizining
"Adabiy nutq uslublari. Ilmiy uslub va uning xususiyatlari"
mavzusidagi ochiq dars ishlanmasiga

TAQRIZ

Ushbu amaliy dars uchun tanlangan mavzu "O'zbek tilining sohada qo'llanishi" fanining fan dasturi va ishchi o'quv dasturiga mos keladi. Mazkur amaliy mashg'ulot mavzusi yangi pedagogik texnologiyalar asosida uslubiy tomondan to'g'ri tashkil etilgan. Mavzuga oid topshiriq va mashqlar talabalarning ta'lim yo'nalishi hisobga olingan holda tanlangan va bu holat dars sifati va samaradorligini oshirishga sabab bo'ladi.

"Adabiy nutq uslublari. Ilmiy uslub va uning xususiyatlari" deb nomlangan amaliy mashg'ulot darsini tashkil etishda mavzuning keng qamrovliligi hisobga olingan, boshqa fanlar hamda o'tilgan mavzular bilan bog'langan, yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalar to'g'ri tanlangan, bularning barchasi o'qituvchining tajribali pedagog ekanligini ko'rsatadi. Tanlangan mashq va topshiriqlar bir-birini takrorlamaydi va mavzuga mosligi darsning qiziqarliligini ta'minlaydi. Dars jarayonida tinglab tushunish, yozish, so'zlash kabi ko'nikmalar yuzasidan ham mashqlar va topshiriqlar berilgan. Ushbu mashq va topshiriqlar talabalarda adabiy nutq uslublari: so'zlashuv, ilmiy, rasmiy-idoraviy, publitsistik, badiiy uslublar va ularning o'ziga xos xususiyatlari haqida amaliy bilim va ko'nikmalar hosil qilishga xizmat qiladi.

Bozorova Gulruh tomonidan tayyorlangan "Adabiy nutq uslublari. Ilmiy uslub va uning xususiyatlari" mavzusidagi ochiq dars ishlanmasi hozirgi zamon ta'lim texnologiyalari hamda zamonaviy mutaxassislar tayyorlash yo'lida qo'yilgan talablarga to'liq javob beradi deb hisoblayman va uni "O'zbek tilining sohada qo'llanishi" fanining o'quv mashg'ulotida foydalanish uchun tavsiya etaman.

Samarqand davlat universiteti
Istiqlol davri adabiyoti va
adabiyot nazariyasi kafedrasi
dotsenti



D. Jabborova